

UDC (UO‘K, YDK): 81-114

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA YIRTQICH VA JUFTTUYOQLI YOVVOYI HAYVON NOMLARI OMONIMIYASI⁸

Xidirova Maxfuza Amirkulovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti yuqori

kurslar kafedrası katta o‘qituvchisi

m.xidirova@dpi.uz

ORCID:0009-0003-2069-5241

ANNOTATSIYA

Maqolada ingliz tili va o‘zbek tillaridagi sutemizuvchi hayvon nomlarida (yirtqichlar va jufttuyoqlilar turkumlariga oid jami ikkita tilda 220 ta nom misolida) omonimiya hodisasining lingvistik xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqot maqsadi mazkur leksik qatlamda omonimiyaning tarqalish darajasini aniqlash, uning asosiy turlarini jumladan, to‘liq omonimlar, omofonlar, omograflar, kapitonimlar bo‘yicha klassifikatsiya qilish va chastota taqsimotini o‘rganishdir.

Tadqiqotda adabiyotlar sharhi, tavsifiy-analitik metod, leksik-semantik tahlil, tasniflash va miqdoriy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘rganilgan korpusdagi ingliz tilidagi hayvon nomlarining taxminan 30 tasi omonimik xususiyatga ega, o‘zbek tilida esa aynan shu ikki turkum bo‘yicha omonimik holat topilmadi. Aniqlangan omonimik hodisalar orasida to‘liq omonimlar va omofonlar eng keng tarqalgan turlar bo‘lib, kapitonimlar ham sezilarli ulushni egallaydi. Tadqiqotda zoologik terminologiya va umumiy leksika o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni, metafora va madaniy omillarning omonimiya paydo bo‘lishidagi rolini ochib berilgan.

KALIT SO‘ZLAR

Omonimiya, polisemiya, leksik semantika, ingliz tili, hayvon nomlari, sutemizuvchilar, yirtqichlar, jufttuyoqlilar, omofon, kapitonim, to‘liq omonimlar, lingvistik tahlil.

Received: May 1, 2025

Accepted: May 28, 2025

Available online: September 3, 2025

⁸For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Xidirova M. Ingliz va o‘zbek tillarida yirtqich va jufttuyoqli yovvoyi hayvon nomlari omonimiyasi. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 3(7) — B. 114-129.

HOMONYMY OF PREDATORY AND ARTIODACTYL WILD ANIMAL NAMES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Khidirova Makhfuza Amirkulovna

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Senior lecturer at the department of foreign language

and literature of higher courses

m.xidirova@dtpi.uz

ORCID:0009-0003-2069-5241

ABSTRACT

The article is dedicated to analyzing the linguistic features of homonymy in mammal names in English and Uzbek languages, focusing on a total of 220 names from predator and even-toed ungulate orders in both languages. The research aims to determine the prevalence of homonymy in this lexical layer, classify its main types including complete homonyms, homophones, homographs, and capitonyms, and study their frequency distribution.

The study employs literature review, descriptive-analytical method, lexico-semantic analysis, classification, and quantitative analysis methods. Results show that approximately 30 animal names in the English corpus exhibit homonymous characteristics, while no homonymy was found in the Uzbek language for these two orders. Among the identified homonymous phenomena, complete homonyms and homophones are the most prevalent types, with capitonyms also occupying a significant proportion. The research reveals the interaction between zoological terminology and general vocabulary, as well as the role of metaphors and cultural factors in the emergence of homonymy.

KEY WORDS

Homonymy, polysemy, lexical semantics, English language, animal names, mammals, carnivores, artiodactyls, homophone, capitonym, full homonyms, linguistic analysis.

ОМОНИМИЯ НАЗВАНИЙ ХИЩНЫХ И ПАРНОКОПЫТНЫХ ДИКИХ ЖИВОТНЫХ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Хидирова Махфуза Амиркуловна

Старший преподаватель

Кафедра иностранного языка и литературы

старших курсов

Денауский институт предпринимательства и педагогики

m.xidirova@dtpi.uz

ORCID:0009-0003-2069-5241

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
Статья посвящена анализу лингвистических особенностей явления омонимии в названиях млекопитающих в английском и узбекском языках. Материалом исследования стали 220 названий животных, относящихся к отрядам хищников и парнокопытных, в двух языках). Цель исследования - определить степень распространения омонимии в данном лексическом пласте, классифицировав ее случаи на основные типы, включая полные омонимы, омофоны, омографы, капитонимы, и изучить частотность их распределения. В исследовании использовались методы обзора литературы, описательно-аналитический метод, лексико-семантический анализ, классификация и количественный анализ. Результаты анализа показали, что около 30 английских названий животных в исследуемом корпусе обладают омонимическими характеристиками, в то время как в узбекском языке омонимические случаи для названий животных этих двух отрядов не обнаружены. Среди выявленных омонимических явлений наиболее распространены полные омонимы и омофоны, значительную долю также составляют капитонимы. В исследовании раскрывается взаимодействие зоологической терминологии и общей лексики, а также роль метафор и культурных факторов в возникновении омонимии.	Омонимия, полисемия, лексическая семантика, английский язык, названия животных, млекопитающие, хищники, парнокопытные, омофон, капитоним, полные омонимы, лингвистический анализ.

KIRISH

Til – murakkab va ko‘p qirrali tizim bo‘lib, unda shakl va ma’no o‘rtasidagi munosabatlar har doim ham bir ma’noli emas. Leksikologiyaning eng qiziqarli hodisalaridan biri omonimiya, ya’ni yozilishi va/yoki talaffuzi bir xil, ammo ma’nolari turlicha bo‘lgan so‘zlarning mavjudligidir. Ingliz tilida omonimlar odatda quyidagi turlarga bo‘linadi: Perfect Homonyms (To‘liq omonimlar): Yozilishi va talaffuzi bir xil, ammo ma’nolari har xil (masalan, bat - ko‘rshapalak / bat - beysbol tayoqchasi). Homophones Omofonlar): Talaffuzi bir xil, ammo yozilishi va ma’nolari har xil (masalan, to, too, two). Homographs (Omograflar): Yozilishi bir xil, ammo talaffuzi va ma’nolari har xil (masalan, lead /led/ - qo‘rg‘oshin / lead /li:d/ - yetaklamq). Capitonyms (Kapitonimlar): Yozilishi bir xil, ammo bosh harf bilan yozilganda ma’nosi o‘zgaradi (masalan, turkey - kurka / Turkey - Turkiya). Ingliz tili, o‘zining boy tarixi va turli manbalardan so‘zlarni o‘zlashtirishga moyilligi tufayli, omonimik hodisalarga ayniqsa boydir. Ko‘pgina hayvon nomlari umumiy nutqda ham faol qo‘llaniladi va vaqt o‘tishi bilan qo‘shimcha, ba’zan metaforik ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin. Bu esa omonimik va polisemik holatlarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi, ingliz va o‘zbek tillaridagi Yirtqichlar (Carnivora) va Jufttuyoqlilar (Artiodactyla) turkumlariga mansub 220 ta sutemizuvchi hayvon nomlari omonimiyasining tarqalishi, turlari va lingvistik xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilishdir. Tadqiqotning ahamiyati shundaki, u ingliz va o‘zbek tili leksikasining ma’lum bir qatlamida omonimiyaning namoyon bo‘lish xususiyatlarini ochib beradi, zoologik terminologiya va umumiy leksika o‘rtasidagi aloqadorlikni ko‘rsatadi.

ASOSIY QISM

Leksik ma’no va uning murakkabligi tilshunoslikning, xususan, semantikaning markaziy tadqiqot obyektlaridan biridir. So‘zlarning shakli va ma’nosi o‘rtasidagi nomuvofiqliklar omonimiya va polisemiya kabi hodisalarda

namoyon bo‘ladi. Omonimiya hodisasi, ya’ni shaklan bir xil, ammo ma’no jihatdan farqli leksik birliklarning mavjudligi ko‘plab tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan. D. Crystal o‘zining lingvistika va fonetika lug‘atida omonimiyaning asosiy turlariga – to‘liq omonimlar (perfect homonyms), omofonlar (homophones) va omograflar (homographs)ga aniq ta’riflar beradi (Crystal D., 2008, 231). O.S. Axmanova o‘zining fundamental “Rus tilidagi omonimlar lug‘ati” asari orqali nafaqat nazariy tasniflash, balki omonimlarni leksikografik qayd etishning amaliy jihatlarini ham namoyish etadi (Axmanova O.S., 1971, 451). G. Yule ham o‘zining tilshunoslikka kirish darsligida bu tushunchalarni sodda va tushunarli tarzda bayon etadi (Yule G., 2016, 132). Omonimiya va polisemiya o‘rtasidagi chegarani aniqlash leksik semantikaning eng munozarali masalalaridan biridir. J. Lyons o‘zining seminal “Semantics” asarida bu muammoga alohida e’tibor qaratib, etimologik va semantik bog‘liqlik mezonlarini chuqur tahlil qiladi (Lyons J., 1977, 193). D.A. Cruse ham “Meaning in Language” kitobida bu ikki hodisaning nozik jihatlarini, ular orasidagi farqlarni aniqlash mezonlarini muhokama qiladi (Cruse D.A., 2004, 24). Rus tilshunosligida V.V. Vinogradov so‘z ma’nolarining rivojlanishi va ko‘p ma’nolilik tabiati haqidagi qarashlari orqali polisemiya va uning omonimiyadan farqlanishiga oid muhim fikrlarni ilgari surgan (Vinogradov V.V., 1977, 289). I.V. Arnold ham ingliz tilidagi misollar asosida bu ikki hodisani farqlashning nazariy va amaliy qiyinchiliklarini ko‘rsatib beradi (Arnold I.V., 1986, 182). Dirk Geeraerts hayvon nomlarida yuzaga keladigan omonimiyani noqulay til holati deb baholab, bunday vaziyatlarda til “terapevtik reaksiya” sifatida yangi nomlar (masalan, *gat* o‘rniga *azan*, *bigey*) yaratishini ta’kidlaydi. U bu holatni “bir shakl – bir ma’no” prinsipi bilan izohlaydi (Geeraerts D., 2010, 63). Jackson va Zé Amvela omonim hayvon nomlari, masalan *bat* (hayvon) va *bat* (tayoq) o‘rtasida kontekst asosida chalkashlik yuzaga kelishi mumkinligini ta’kidlaydi, biroq bunday holatlar odatda so‘z turkumi va kontekst orqali farqlanadi (Jackson H., Zé Amvela E., 2007, 72). Murphy M. L. omonimlarni bir xil shaklga ega, ammo ma’nosi va kelib chiqishi har xil so‘zlar deb ta’riflaydi. U homofonlar (talaffuzi bir xil) va homograflar (yozilishi bir xil)ni ajratadi hamda bog‘liq ma’nolarga ega bitta so‘zni polisemantik birlik deb

ataydi (Murphy M. L., 2010, 84). Stephen Ullmann omonimlar holatida kontekstning roli hal qiluvchi ekanini ta'kidlaydi. Uningcha, *sole* kabi so'zlar (baliq, oyoq osti, sifat) faqat kontekst yordamida farqlanadi. Shakespear she'ridagi *sole* va *soul* o'rtasidagi so'z o'yini ham kontekstga asoslangan ikki ma'nolilikdir. Ullmann fikricha, kontekst semantik noaniqlikni bartaraf etishda muhim vosita hisoblanadi (Ullmann S., 1962, 53).

Tadqiqot metodologiyasi. Amaliy tahlil ob'ekti sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi sutemizuvchi hayvonlar nomlaridan 220 tasi tanlab olindi. Bu nomlar zoologik tasnif bo'yicha Yirtqichlar (*Carnivora*) va Jufttuyoqlilar (*Artiodactyla*) turkumlariga mansub bo'lib, oldindan shakllantirilgan ro'yxat asosida tanlab olindi. Har bir hayvon nomining asosiy (zoologik) ma'nosi aniqlanib, unga mos bo'lgan potensial omonim shakllari zamonaviy ingliz tilining yetakchi lug'atlari (Oxford English Dictionary, Merriam-Webster) va lingvistik ma'lumotlar bazalari asosida tahlil qilindi. O'zbek tilidagi hayvon nomlariga oid misollarni sharhlashda esa, O'zbek tilining izohli lug'ati hamda Sh. Rahmatullaevning "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati" kabi asosiy leksik manbalar asos qilib olindi. Olingan ma'lumotlar asosida aniqlangan omonimik birliklar guruhlariga ajratildi: to'liq omonimlar, omofonlar, omograflar, kapitoniimlar. Shuningdek, polisemiya bilan omonimiya o'rtasidagi chegaraviy holatlar alohida qayd etildi. Korpusdagi umumiy birliklar sonidan kelib chiqib, omonimik birliklarning foiz nisbati hisoblab chiqildi. Har bir omonimiya turining chastotasi va ularning umumiy korpusdagi taqsimoti diagrammalar va grafik vositalar orqali tahlil qilindi. Yakuniy bosqichda aniqlangan natijalar umumlashtirilib, omonimiyaning hayvon nomlari qatlamidagi o'ziga xosligi, uning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan omillar, masalan, metaforik ma'no kengayishi, fonetik o'xshashlik, madaniy ta'sirlar bo'yicha nazariy xulosalar chiqarildi. Ushbu metodologik yondashuv tanlangan leksik korpus doirasida omonimiya hodisasini chuqur va har tomonlama o'rganish, uning strukturaviy xususiyatlarini aniqlash hamda ilmiy asosda miqdoriy baholash imkonini beradi.

To'plangan o'zbek tilidagi misollar orasida omonimlik holati topilmadi. Ingliz tilidagi sutemizuvchi yirtqich hayvonlar va jufttuyoqlilarga oid nomlarning 30 tasida omonimik xususiyatlar aniqlandi va ularning leksik-semantik holatlari lug'aviy va kontekstual asosda tekshirildi. Har bir nomning zoologik ma'nosi bilan bir qatorda, u bilan fonetik, grafik va semantik jihatdan mos keluvchi boshqa ma'nolari aniqlanib, mavjud lug'at va korpuslar asosida tasdiqlandi.

Quyida ushbu tahlil natijalari asosida tuzilgan jadval taqdim etiladi. Unda har bir hayvon nomining o'zbekcha tarjimasi, unga tegishli omonimlar yoki boshqa leksik birliklar va ular bilan bog'liq omonimiya turi ko'rsatiladi.

Guruh 1: Yirtqichlar (Carnivora). Quyidagi 1-jadvalda "Yirtqichlar" guruhidagi hayvonlarning inglizcha nomlari va ularning omonimik tahlili keltirilgan:

1-jadval:

№	Inglizcha nomi	O'zbekcha nomi	Omonimlar va ma'nolari	Omonimiya turi
1	Jaguar	Yaguar	Jaguar (Avtomobil brendi)	Perfect Homonym / Capitonym
2	Puma (Cougar)	Puma	Puma (Sport kiyimlari brendi)	Perfect Homonym / Capitonym
3	Wolf	Bo'ri	wolf (fe'l: ochofatlik bilan yemoq)	Polysemy
4	Fox	Tulki	fox (fe'l: aldash, chalg'itish; sifat: jozibali - eskirgan)	Polysemy
5	Bear	Qo'ng'ir ayiq	1. bear (fe'l: ko'tarmoq, chidamoq) 2. bare (sifat: yalang'och, ochiq)	1. Perfect Homonymy 2. Homophone


6	Grizzly (Bear)	Grizi ayig'i	grisly (sifat: dahshatli, jirkanchli)	Homophone
7	Sloth (Bear)	Erkak ayiq	sloth (ot: dangasalik, erinchoqlik)	Perfect Homonym
8	Weasel	Laska	weasel (fe'l: javobgarlikdan qochish; ot: makkor odam)	Perfect Homonym
10	Badger	Bo'rsiq	badger (fe'l: tinimsiz bezovta qilmoq, siquvga olmoq)	Perfect Homonym
11	Skunk	Skuns	skunk (ot: yaramas odam; fe'l: butunlay mag'lub etmoq)	Perfect Homonym
12	Seal	Tyulen	seal (ot: muhr, yopish uchun moslama; fe'l: muhrlamoq, mahkam yopmoq)	Perfect Homonym
13	Harp seal	Grenlandiya tyuleni	harp (ot: arfa musiqa asbobi)	Perfect Homonym (faqat "harp" so'zi uchun)
14	Lynx	Silovsin	links (ot: bog'lanishlar, golf maydoni)	Homophone

Tahlil natijalariga ko'ra, "Perfect Homonym" turi 6 ta hayvon nomida aniqlandi. Bular jumlasiga *sloth*, *weasel*, *badger*, *skunk*, *seal*, va *harp seal* kiradi. Bu holatda so'zlar bir xil yoziladi va talaffuz qilinadi, ammo ma'nolari butunlay boshqacha bo'ladi. Masalan, "seal" so'zi ham tyulen (hayvon), ham muhr (narsa) ma'nolarida ishlatiladi. "Perfect homonym / Capitonym" turi esa 2 ta holatda kuzatildi — *jaguar* va *puma*. Bu so'zlar hayvon nomi bo'lishi bilan birga, kapital harf bilan yozilganda brendlar nomi bo'lib xizmat qiladi. Bu ularning omonimiya va tovar nomlari bilan kesishuvini ko'rsatadi. Polysemy — ko'p ma'nolilik hodisasi — *wolf* va *fox* so'zlarida kuzatildi. Bu so'zlar bir tomondan hayvon sifatida, boshqa

tomondan esa harakat, xarakter yoki sifat ma'nolarida ishlatiladi (masalan, "to wolf down food" – ovqatni ochofatlik bilan yeyish, yoki "foxy woman" – jozibali ayol). Homophone turidagi birliklar ham 3 ta bo'lib, ular fonetik jihatdan bir xil, lekin yozilishi yoki ma'nosi boshqa bo'lgan so'zlardir (*bear/bare*, *grizzly/grisly*, *lynx/links*). Bu hodisa talaffuzdagi o'xshashlik orqali chalkashlikka olib kelishi mumkin.

Quyidagi 1-grafikda "Yirtqichlar" guruhidagi hayvon nomlaridagi omonimiya turlarining taqsimoti ko'rsatilgan.

Grafik 1



Perfect Homonym turlari (masalan: *bongo*, *sable*, *yak*, *fallow*) umumiy birliklarning 46.2% ini tashkil qiladi. Bu shuni ko'rsatadiki, ushbu so'zlar ko'pincha boshqa mutlaqo bog'liq bo'lmagan ma'nolar bilan bir xil shaklda ishlatiladi. Homophone hodisasi (*boar/bore*, *deer/dear*, *roe/rowan*) esa 23.1% ulushga ega bo'lib, og'zaki nutqda ko'p uchraydigan chalkashliklarning manbaidir. Perfect Homonym / Capitonym (*water buffalo*, *impala*) va Perfect Homonym / Polysemy (*chamois*) turlari kamroq (15.4%) uchraydi, lekin semantik tafovutni anglashda o'quvchilar va tarjimonlar uchun murakkablik tug'dirishi mumkin. Capitonym

holatlari, masalan, *Springbok* (hayvon va jamoa laqabi sifatida), sozlashuv va madaniy kontekstda muhim pragmatik yuklamaga ega bo‘ladi.

Guruh 2: Jufttuyoqlilar (Artiodactyla). Quyidagi jadvalda “Jufttuyoqlilar” guruhidagi hayvonlarning inglizcha nomlari va ularning omonimik tahlili keltirilgan:


2-jadval:

№	Inglizcha nomi	O‘zbekcha nomi	Omonimlar va ma’nolari	Omonimiya turi
1	Boar	Yovvoyi to‘ng‘iz	bore (fe‘l: teshik ochmoq; ot: zerikarli odam/narsa)	Homophone
2	Camel (Dromedary)	Bir o‘rkachli tuya	Camel (Sigaret brendi)	Capitonym
3	Deer	Xongul (Bug‘u)	dear (sifat: qadrli, aziz; qimmat)	Homophone
4	Fallow (Deer)	Olatoq kiyik	fallow (sifat/ot: ishlov berilmagan (yer); och sariq rang)	Perfect Homonym (“fallow” so‘zi uchun)
5	Reindeer (Caribou)	Shimol bug‘usi	rein (ot: jilov); rain (ot: yomg‘ir)	Homophone (rein/rain)
6	Roe (Deer)	Evropa yoki Sibir kiyigi	1. roe (ot: baliq uvuldirig‘i) 2. row /rou/ (ot: qator; fe‘l: eshkak eshmoq)	1. Perfect Homonym (roe/roe) 2. Homophone
7	Water Buffalo	Suv bufalosi	buffalo (fe‘l: dovdiratmoq, qo‘rqitmoq); Buffalo (AQShdagi shahar)	Perfect Homonym / Capitonym

8	Yak	Togʻ buqasi	yak (feʼl: koʻp va bemaʼni gapirmoq)	Perfect Homonym
9	Tahr	Tar (Togʻ echkisi)	tar (ot: smola, qatron)	Homophone
10	Chamois	Togʻ echkisi (Chamua)	chamois (shammy) (ot: yumshoq teri turi)	Perfect Homonym / Polysemy (talaffuz farqlanishi mumkin)
11	Impala	Impala (Antilopa)	Impala (Avtomobil modeli)	Perfect Homonym / Capitonym
12	Springbok	Springbok (Antilopa)	Springbok (JAR regbi jamoasi laqabi)	Capitonym
13	Bongo	Bongo (Antilopa)	bongo (ot: bongo barabani)	Perfect Homonym
14	Sable (Antelope)	Qora antilopa	sable (ot/sifat: qora rang; motam kiyimi)	Perfect Homonym
15	Roan (Antelope)	Ot antilopa	1. roan (ot/sifat: olachipor rang (otlarda)) 2. rowan (ot: chetan daraxti)	1. Perfect Homonym (roan/roan) 2. Homophone
16	Kob	Kob (Antilopa)	cob (ot: makkajoʻxori soʻtasi; erkak oqqush; ot turi)	Homophone

Tahlil natijalariga ko‘ra homophone (Fonetik omonim) turlari 6 ta birlikda kuzatildi. Masalan, *boar* – *bore*, *deer* – *dear*, *roe* – *row*, *reindeer* – *rein/rain* kabi juftliklar talaffuz jihatdan bir xil, lekin ma’nolari va yozilishi jihatdan farqlanadi. Perfect Homonym (To‘liq omonim) holati 4 ta birlikda qayd etildi. Bunga *bongo*, *yak*, *sable*, *roe* (baliq uvuldirig‘i va kiyik) kabi hayvon nomlari kiradi. Perfect Homonym / Capitonym turlari ham 4 ta bo‘lib, ular orasida *camel* (sigaret brendi), *impala* (avtomobil modeli), *water buffalo* (shahar va hayvon), va *boar* (bore bilan fonetik omonimlik) mavjud. Perfect Homonym / Polysemy yagona holatda — *chamois* so‘zida kuzatildi. Bu yerda *chamois* hayvon sifatida ham, *yumshoq teri turi* sifatida ham ishlatiladi, ba’zida esa talaffuz farqlanishi mumkin. Capitonym turkumiga alohida holda *springbok* misol bo‘la oladi. U hayvon nomi bo‘lishi bilan birga JAR milliy sport jamoasining nomidir.


Grafik 2. Ushbu grafikda “Jufttuyoqlilar” guruhidagi hayvonlarning inglizcha nomlari va ularning omonimik xususiyati taqsimoti ko‘rsatilgan.



Grafikdan ko‘rinib turibdiki, homophone hodisasi bu ro‘yxatdagi hayvon nomlarida eng keng tarqalgan leksik hodisa hisoblanadi. Bu fonetik o‘xshashlik orqali hosil bo‘ladigan chalkashliklar, ayniqsa, og‘zaki nutqda tilshunoslik nuqtayi nazaridan muhim. Perfect homonym va perfect homonym / capitonym birliklari son jihatidan teng bo‘lib, ular so‘zlarning kontekstga qarab mutlaqo boshqa ma’nolarga ega bo‘lishini ko‘rsatadi. Nisbatan kam uchraydigan, ammo semantik jihatdan

murakkabroq turlar esa polysemy bilan kombinatsiyalashgan holatlar (masalan, *chamois*) va sof capitonym birliklardir.

Grafik 3. Ushbu grafikda “Yirtqichlar” hamda “Jufttuyoqlilar” guruhidagi hayvonlarning inglizcha nomlari va ularning omonimik xususiyati umumiy taqsimoti ko‘rsatilgan.



Ushbu tadqiqot doirasida ingliz tilidagi sutemizuvchi hayvon nomlari ichidan Yirtqichlar (Carnivora) va Jufttuyoqlilar (Artiodactyla) turkumlariga mansub 130 ta birlik tahlil qilindi. Ushbu tanlangan korpus asosida 30 ta omonimik holat aniqlandi va ular leksik-semantik turlariga ko‘ra tasniflandi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, hayvon nomlari til tizimida faqat zoologik ma’nolar bilan cheklanib qolmay, balki ko‘p hollarda boshqa so‘zlar bilan leksik shakldagi o‘xshashlik (omonimiya), fonetik moslik (omofoniya) va morfologik yaqinlik (kapitonimiya) asosida bir necha mutlaqo alohida ma’noga ega bo‘lgan birliklar sifatida xizmat qiladi. 30 ta aniqlangan omonimik birlik quyidagi turlarga ajratildi:

1. Perfect Homonym – 10 ta holat (33.3%): Bunday birliklar yozilish va talaffuz jihatidan bir xil bo‘lib, mutlaqo farqli ma’nolarga ega (masalan: *seal*, *yak*, *bongo*).

2. Homophone – 8 ta holat (26.7%): Soʻzlar talaffuzi jihatidan bir xil, lekin yozilishi va maʼnosi jihatdan boshqa (masalan: *deer–dear, lynx–links, boar–bore*).

3. Perfect Homonym / Capitonym – 5 ta holat (16.7%): Soʻzning hayvon nomi sifatidagi shakli bilan birga, brend, geografik nom yoki boshqa katta harf bilan yoziluvchi birlik sifatida qoʻllanishi (masalan: *Jaguar, Impala, Camel*).

4. Polysemy – 4 ta holat (13.3%): Bu holatda soʻz bir nechta yaqin maʼnoga ega boʻlib, ular asosan kontekstda aniqlanadi (masalan: *wolf, fox*).

5. Perfect Homonym / Polysemy – 2 ta holat (6.7%): Soʻz bir vaqtning oʻzida mustaqil va koʻp maʼnoli boʻlishi mumkin (masalan: *chamois*).

6. Capitonym – 1 ta holat (3.3%): Faqat yozilishda bosh harf oʻzgarishi orqali maʼno oʻzgaradigan birlik (masalan: *Springbok* – hayvon va sport jamoasi).

XULOSA

Oʻzbek tilida yirtqichlar va juft tuyoqli yovvoyi hayvonlar nomlari orasida olingan misollar tahlili shuni koʻrsatdiki, bu guruhlariga oid hayvon nomlari orasida omonimlik holatlari deyarli uchramaydi. Tadqiqot davomida birorta ham aniq omonim topilmadi. Bu holat oʻzbek tilidagi hayvon nomlarining koʻp hollarda biologik nomlanish anʼanalariga sodiq boʻlib, maʼnoviy izchillikni saqlashi bilan bogʻliq boʻlishi mumkin.

Aksincha, ingliz tilida esa ushbu guruhga oid 30 dan ortiq hayvon nomlarida omonimlik holatlari qayd etildi. Bunday farq ingliz tilining koʻp qatlamli va tarixi boy boʻlgan lugʻaviy tizimi, shuningdek, hayvon nomlarining boshqa kontekstlarda (koʻchma maʼno, metafora, sleng, kasb, narsa nomi sifatida) keng ishlatilishi bilan izohlanadi. Xulosa natijasida shunday takliflar berish mumkin:

Leksik tadqiqotlarni chuqurlashtirishda oʻzbek tilida hayvon nomlari bilan bogʻliq omonimlarni aniqlash uchun dialektal, folklor va badiiy matnlar asosida kengroq korpuslar yaratish va tahlil qilish tavsiya etiladi; Qoʻshma lugʻatlar tuzish

– Ingliz va o‘zbek tillarida hayvon nomlarining omonimik holatlarini solishtiruvchi ikki tilli izohli lug‘at tuzish, bu orqali tarjima va leksikografik amaliyotda muqobil yechimlar taklif etish mumkin; Metaforik ishlatishlarni o‘rganish – ingliz tilida hayvon nomlarining ko‘chma ma’noda keng qo‘llanishi ularning omonimga aylanishiga sabab bo‘lishini inobatga olib, o‘zbek tilida ham hayvon nomlarining metaforik va terminologik ishlatish holatlarini chuqurroq o‘rganish zarur; O‘quv materiallarini boyitish – leksik-semantik hodisalarni o‘rgatishda hayvon nomlarining omonimiy holatlari asosida tuzilgan topshiriqlar til o‘rgatish jarayonini boyitadi va tilshunoslik kompetensiyasini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Akhmanova, O. S. Slovar’ omonimov russkogo yazyka. – Moscow: Sovetskaya Entsiklopediya, 1971. – 451 p.
2. Arnold, I. V. Leksikologiya sovremennogo angliyskogo yazyka. – 3rd ed. – Moscow: Vysshaya Shkola, 1986. – 254 p.
3. Cruse, D. A. Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2004. – 437 p.
4. Crystal, D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. – 6th ed. – Oxford: Blackwell Publishing, 2008. – 555 p.
5. Geeraerts, D. Theories of Lexical Semantics. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – 362 p.
6. Jackson, H., & Zé Amvela, E. Words, Meaning and Vocabulary: An Introduction to Modern English Lexicology. – 2nd ed. – London: Continuum, 2007. – 254 p.
7. Lyons, J. Semantics. – Vols. 1 & 2. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 539 p.
8. Murphy, M. L. Lexical Meaning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 276 p.
9. Ullmann, S. Semantics: An Introduction to the Science of Meaning. – Oxford: Basil Blackwell, 1962. – 290 p.

10. Vinogradov, V. V. *Izbrannye trudy. Leksikologiya i leksikografiya*. – Moscow: Nauka, 1977. – 318 p.
11. Yule, G. *The Study of Language*. – 6th ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016. – 340 p.

REFERENCES

1. Akhmanova, O. S. (1971). *Slovar' omonimov russkogo yazyka*. Moscow: Sovetskaya Entsiklopediya.
2. Arnold, I. V. (1986). *Leksikologiya sovremennogo angliyskogo yazyka* (3rd ed.). Moscow: Vysshaya Shkola.
3. Cruse, D. A. (2004). *Meaning in language: An introduction to semantics and pragmatics* (2nd ed.). Oxford: Oxford University Press.
4. Crystal, D. (2008). *A dictionary of linguistics and phonetics* (6th ed.). Oxford: Blackwell Publishing.
5. Geeraerts, D. (2010). *Theories of lexical semantics*. Oxford: Oxford University Press.
6. Jackson, H., & Zé Amvela, E. (2007). *Words, meaning and vocabulary: An introduction to modern English lexicology* (2nd ed.). London: Continuum.
7. Lyons, J. (1977). *Semantics* (Vols. 1 & 2). Cambridge: Cambridge University Press.
8. Murphy, M. L. (2010). *Lexical meaning*. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Ullmann, S. (1962). *Semantics: An introduction to the science of meaning*. Oxford: Basil Blackwell.
10. Vinogradov, V. V. (1977). *Izbrannye trudy. Leksikologiya i leksikografiya*. Moscow: Nauka.
11. Yule, G. (2016). *The study of language* (6th ed.). Cambridge: Cambridge University Press.